



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 13-may, chorshanba,
44 (24.224)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bulbulga
bog' yaxshi,
kaklikka
tog'

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

SIYOSIY SHARH VA... YANGILANGAN POLIKLINIKA



Urgutda yangi qurilgan poliklinikadan maqola tayyorlash uchun yo'lga chiqdim. Yo'l davomida qo'limizdagi doimiy hamrohimizga aylangan, zamonaviy qulaylik bo'lgan telefon orqali yangiliklar bilan bir qur tanishib chiqdim, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatdim. Taniqli siyosiy sharhlovchi Kamoliddin Rabbimovning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida aynan men borayotgan manzil haqidagi fikrlarni o'qib, qiziqishim ikki hissa ortdi. Siyosiy sharhlovchi oddiy poliklinika misolida mamlakat rivojlanishi haqida quyidagicha fikrlarni bildirgan edi:



"O'zbekiston – nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik jamiyat, balki post-sovet va turkiy dunyodagi eng yirik ikkinchi mamlakatga aylanib bo'ldi. Mamlakatning yirikligi – uning sarhadi, tog' u toshlari va yerlarining kvadrat kilometri bilan o'lchanmaydi, balki unda yashayotgan insonlar soni va salmog'i bilan o'lchanadi.

Sobiq ittifoq qulagan davrda 20 million atrofida edik, bugun 40 million ostonasidamiz. Bugun – katta millatimiz, ulkan xalqimiz. O'zbekistonning demografik o'sib borishi – bu katta fozilat, katta ijobiy holat, qudrat parametrlaridan biri. Xayrlisi shuki, O'zbekistonning demografik o'sib borishi bilan birga, iqtisodiy o'sishi, infrastrukturaviy o'sishi ham parallel ketmoqda.

Bahringdagi poliklinika huddi katta shaharlar poliklinikasi darajasiga yetkaziladi. Xuddi shunday sharoitdagi poliklinikalar O'zbekistonning barcha o'lis qishloqlarida ham qurilishi – vaqt masalasi.

Maktablar, bog'chalar, poliklinikalar, universitetlar, mustahkam va keng yo'llar va hokazolar – millatning rivoji uchun eng zarur infrastrukturalar hisoblanadi. O'zbekiston 2016-yilga qadar o'zini "xavfsizlik va barqarorlik" ka bag' ishlagan davlat edi. Haqiqatda, 2016-yilga qadar O'zbekistonda mutlaq xavfsizlik va barqarorlik o'rnatildi. Hamma tomon tinch va osoyishta edi. Bugun O'zbekiston rivojlanish yo'lini tanladi, dinamik rivojlanish yo'li...".

EKG XONASINI ORZU HAM QILOLMASDIK

Haqiqatan ham Bahrin mahallasida yangi qurilgan poliklinika ko'rinishidan bir qavatli, oddiy bino bo'lsa-da, qulay, zamonaviy dizaynerlar tomonidan puxta o'ylangan loyiha asosida qurilgani ko'rinib turibdi. Binodagi har bir detal bejiz qo'llanilmaganini sezasiz. Go'yo Urgut markazidan 30 kilometr uzoqlikdagi qishloqdagi poliklinika emas, poytaxtning qoq markazidagi tibbiy muassasaga kelib qolganiga o'xshaysiz. Darvoqe, ushbu binoga borguncha bo'lgan yo'l ham e'tiborimizni tortdi. Unda avtomashinalar bilan bir qatorda piyodalar uchun ham chiroyli yo'lak, imkoniyat cheklangan insonlar yurishi uchun taktil plitkalar yotqizilgan. Atrof obodligi, gulu daraxtlarning bir tekis tartib bilan ekilgani atrofga o'zgacha foyz berib turibdi.

- 5 ta mahallada yashovchi jami 13 mingdan ziyod aholiga xizmat ko'rsatamiz, - deydi Urgut tuman 21-oilaviy poliklinika mudiri Sardor Luqmonov. - Ko'rib turganingizday, sharoitlar butunlay o'zgardi, ilgari muhit kutilganidan ham ko'ra zamonaviy sharoitga aylandi. Nafaqat ko'rinish, balki tarkibda ham yangiliklar bo'ldi. Xususan, endi poliklinikada umumamali-

yo't shifokori, pediatr, ginekolog, rentgenolog, UTT shifokori kabi mutaxassislar faoliyati ko'rsatadi. Fizioterapiya xonasi bugungi eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Poliklinikadan tuman markazigacha 30 kilometr olisda, biz xizmat ko'rsatayotgan qishloq aholisi uchun esa 60 kilometr uzoqlikda bo'lgan tibbiyot muassasamizda EKG xonasi bo'lishini hatto orzu ham qilmasdik. Hozir mazkur xonada aholi yuragini nazoratdan o'tkazib ketyapti.

Laboratoriya xonasida 30 xilgacha bo'lgan tahlillar olinadi. Yaxshi bilasiz, ilgari qishloq hududidagi poliklinikaning laboratoriya tahlillarini birorta tuman, viloyat darajasidagi shifoxonalar tan olmasdi, boshqatdan topshirishga to'g'ri kelardi. Endilikda ushbu laboratoriya tahlillari respublika miqyosidagi shifoxonalar tomonidan inobatga olinadi.

- Ilgari dori-darmon qo'yishga ham joyimiz yo'q edi, - deydi poliklinika bosh hamshirasi Ra'no Po'latova. - Mana, ko'rib turganingizday, dori vositalari uchun zamonaviy jihozlar, dori ta'minoti esa 80 foizga yetkazildi. Aholi ayollar va erkaklar uchun alohida bo'lgan 10 o'rinni kunduzgi stasionar xizmatidan bepul foydalanmoqda. 69 turdagi dori vositalari aholiga bepul berilayotir.

MARKAZDAN 60 KILOMETR UZOQLIKDA

Poliklinika bilan deyarli bir binoda yondosh qurilgan mo'jaz tug'ruq bo'limida hatto operatsiya xonalari ham mavjud. Bu yerda yilning hozirgi davriga qadar 246 ta tug'ruq qabul qilingan.

- 25 o'rindan iborat tug'ruq bo'limida uch nafar shifokor, olti nafar doya faoliyat yuritadi, - deydi Urgut tumanlararo perinatal markazi filiali mudiri Obidjon Xo'jmatov. - 16 ta mahalla, qariyb 77 ming aholiga xizmat ko'rsatamiz, ya'ni ushbu bo'limga tuman markazidan 45-60 kilometr uzoqlikdagi qishloq ayollari murojaat etadi. Bunday imkoniyat onalarning o'z vaqtida tug'ruq bo'limlariga kelishlarini ta'minlaydi. To'g'risi, ilgari sharoit haqida gapirishdan uyalamiz. Bunday zamonaviy bino, chaqaloqlar uchun kuvizlar, kislorod moslamalari, operatsiya xonasi – bularni orzu ham qila olmasdik.

Tug'ruq bo'limidagi jihozlar haqida gapirib berar ekan, shifokorlar ba'zilarini nomlari ustida ham tortishib qolganiga guvoh bo'ldik. Demak, bo'lim shifokorlarining zamonaviy maskanlarga mos tarzda malaka oshirishiga imkon berilishi ham kerak.

- Birinchi farzandimni Samarqand shahridagi tug'ruqxonada dunyoga keltirgandim, - deydi Kenagas mahallasida yashovchi Farangiz Nurmonova. -To'g'risi, yo'l uzoqligi tufayli bir necha kun avval borishimizga to'g'ri keldi, qolaversa, boshqa hududdan borganimiz uchun dori-darmonlarni ham o'zimiz sotib oldik, hatto o'rin uchun ham pul to'lagandik. O'zimizning tug'ruq bo'limimiz yangilanganini ko'rib, hech ikkilanmay shu yerga keldik. Hatto shaharda yo'q sharoitlarga guvoh bo'ldik, eng muhimi bepul. O'zimiz ham, chaqalog'im ham sog'lommiz.

Shuningdek, majmua hududida tez tibbiy yordam xizmati ham yo'lga qo'yilgani shu atrofda o'nlab mahalla ahli salomatligini asrash, ularning turmush sifatini oshirish yo'lidagi katta qadamlarning biridir.

Gulruh MO'MINOVA,
"Zarafshon" muxbiri.

Ziyoratchilar muqaddas safarga yo'l oldi

Yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va mo'min-musulmonlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar natijasida har yili minglab hamyurtlarimiz islomning beshinchi arkoni bo'lmish muqaddas haj amalini ado etish baxtiga muvassar bo'lmoqda.



Kuni kecha samarqandlik ziyoratchilarimizning dastlabki guruhi muqaddas Madinai munavvara sari yo'lga chiqdi. Samarqand xalqaro aeroportida bo'lib o'tgan tantanali kuzatish marosimida nafaqat ziyoratchilar, balki ularning yaqinlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etib, bu xayrli safarning naqadar ahamiyatli ekanini his qildilar.

Ertalab "Samarqand-Madina" yo'nalishi bo'yicha parvoz qilgan birinchi aviareys bilan 360 nafar, kunning ikkinchi yarmida esa yana 180 nafar hamyurtimiz muborak zaminga yo'l oldi. Bu oddiy safar emas, balki inson ruhiyatining poklanishi, nafs tarbiyasi va Yarat-

ganning rizoligini izlab qilinayotgan buyuk bir ibodatdir. "Haj-2026" mavsumida viloyatimizdan 940 nafar yurtdoshimiz muqaddas ziyoratga borishi belgilangan bo'lib, ularning xavfsiz va qulay sharoitlarda ibodat qilishlari uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ziyoratchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri aviareyslar tashkil etilgani, malakali tibbiyot xodimlari va tajribali ishchi guruhlarining birkirtilgani yurtimizda inson qadri naqadar baland ekanidan dalolat beradi.

Ahmadxon ALIMOV,
viloyat bosh imom-xatibi.

SUV zaxirasi yetarlimi,

qaysi omborda qancha suv to'plandi?

Bugungi kunda viloyatimizdagi 10 ta suv ombori umumiy to'liq hajmi 1098,82 million metr kubni tashkil etadi. Ayni paytda to'plangan suv hajmi 867,02 million metr kub bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 68,96 million metr kub ko'p degani.

Masalan, Kattaqo'rg'on suv omborida hozirgi kunda 716,78 million metr kub suv mavjud bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 12,55 million metr kubga ko'paygan. Oqdaryo suv omborida esa 75,05 million metr kub suv to'plangan bo'lib, o'sish 37,86 million metr kubni tashkil etmoqda.

Shuningdek, Qoratepa suv omborida 16,54 million metr kub (o'sish 4,59 million metr kub), Qorasuv suv omborida 15,28 million metr kub (o'sish 9,80 million metr kub), To'sinsoy suv omborida 30,90 million metr kub (o'sish 1,68 million metr kub) suv zaxirasi mavjud.

Bundan tashqari, nisbatan kichikroq suv omborlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmog'da. Jumladan, Sobirsoyda 7,32 million metr kub, Oqchopsoyda 3,41 million metr kub va Omondarada 0,37 million metr kub suv to'plangan. Kamangaron suv omborida suv hajmi 1,37 million metr kubni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,10 million metr kubga kamaygan.



Mavjud suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ayniqsa, yoz mavsumida suv tanqisligining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish va suv omborlarini samarali boshqarish ishlari davom ettirilmoqda.

Azamat SUYUNOV,
Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi bo'lim boshlig'i.



Viloyat delegatsiyasi AQShda



Malayziyaning "Orion Consortium Sdn Bhd" kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi



Mahallalarda istiqomat qiluvchi 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholi o'rtasida sport musobaqalariga start berildi



TAYINLOV: Saidmuradova Nargiza O'ktamovna - A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi rahbari etib tayinlandi.

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

Tumanning joriy yil uchun ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"ga chuqurroq nazar tashlansa, bu hujjat hududning yaqin kelajakdagi taqdirini belgilab beruvchi o'ziga xos strategik dastur, ya'ni taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlab beruvchi "jonli xarita" ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu yerda keltirilgan har bir raqam, har bir reja, har bir ko'rsatkich ortida aniq insonlar hayoti, ularning orzu-umidlari, farovon turmushga bo'lgan intilishlari mujassam.

Bugungi kunda dunyoda hududlar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda. Endi faqat tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv ustunlik bermaydi. Asosiy omil to'g'ri rejalashtirilgan iqtisodiy siyosat, inson kapitaliga qaratilgan e'tibor va innovatsiyalarga ochiqlikdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Toyloq tumanida belgilangan vazifalar nafaqat ichki ehtiyojlardan kelib chiqqan, balki global tendensiyalarni hisobga olgan holda shakllantirilganini ko'rish mumkin.

Masalan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 4,15 trillion so'mga yetkazish rejasini shunchaki katta iqtisodiy ko'rsatkich emas. Bu, eng avvalo, yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishi, mavjud korxonalar modernizatsiya qilinishi va eng muhimi, aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladigan keng ko'lami jarayonlarni anglatadi. Birinchi chorakdan boshlab yil yakuniga qadar o'sish sur'atlarining izchil oshirilishi iqtisodiyotda barqarorlik va muvozanatni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir.

TOYLOQ TUMANI

Bunday yondashuvning ahamiyatini oddiy misolda ham tushunish mumkin. Agar iqtisodiy o'sish keskin sakrashlar bilan amalga oshirilsa, bu bozorda beqarorlikka, narxlar o'zgarishiga va ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Ammo izchil va bosqichma-bosqich o'sish tadbirkorlar uchun ham, aholi uchun ham ishonchli muhit yaratadi. Bu esa o'z navbatida yangi tashabbuslar, investitsiyalar va iqtisodiy faollikning oshishiga zamin tayyorlaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda iqtisodiyotni faqat sanoat bilan cheklab bo'lmaydi. Xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. Toyloq tumanida xizmatlar hajmini 2,25 trillion so'mga yetkazish va qariyb 120 foizlik o'sishga erishish rejasini ham aynan shu tendensiyaga mos keladi. Bu ko'rsatkichlar ortida aholining turmush tarzi o'zgarayotgani, odamlar nafaqat asosiy ehtiyojlarini qondirish, balki sifatli xizmatlardan foydalanishga intilayotgani namoyon bo'ladi.

Yangi savdo markazlari, zamonaviy xizmat ko'rsatish obyektlari, kechayu kunduz faoliyat yurituvchi ko'chalar bularning barchasi shahar muhitining yangicha qiyofasini shakllantiradi. Bu esa faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga ham olib keladi. Odamlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi, xizmatlar sifatining oshishi esa hayot darajasini yuksaltiradi.



Iqtisodiy taraqqiyotning yana bir muhim omili investitsiyalardir. Toyloq tumanida 183 million dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish rejasini bu boradagi jiddiy niyatlarni ko'rsatadi. Bu mablag'larning katta qismi manzilli loyihalarga yo'naltirilishi esa investitsiya siyosatining samaradorligini oshiradi.

Investitsiyaning eng muhim jihati shundaki, u faqat pul emas. U bilan birga yangi texnologiyalar, ilg'or boshqaruv usullari va xalqaro standartlar ham kirib keladi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni kengaytirish, delegatsiyalarning rivojlangan davlatlarga tashriflari esa Toyloqning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi taraqqiyot modelining eng muhim jihatlardan biri inson omiliga qaratilgan e'tibordir. Shu ma'noda mahallabay ishlar tizimining joriy etilishi alohida ahamiyatga ega. 2000 ta mikroloyiha bilan amalga oshirilishi har bir mahallaning

ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Bu mahallalarning iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqib, aholini daromadli qilish tizimidir.

Alohida ta'kidlash kerak, Bog'izog'on, Adas va Ilmobod mahallalarida infratuzilmani yaxshilash orqali 315 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanadi.

Darg'om kanali bo'yida dam olish maskanlari, Ilmobod mahallasida Ekoturizm maskani tashkil etilishi rejalashtirilgan. 16 ta madaniy meros obyekti muho-fazaga olinib, sayyohlar uchun jozibador maskanlarga aylantiriladi.

Bundan tashqari, 25 ta mahalla chuqur ixtisoslashtiriladi. Masalan, bir mahalla bog'dorchilikka, boshqasi hunarmandchilikka yo'naltiriladi. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga, ya'ni bir yo'nalishga bog'lanib qolmaslikka yordam beradi. Shu bilan birga, aholining o'z yashash joyida ish topishi ta'minlanadi, bu esa ichki migratsiyani kamaytiradi.

Yil yakunigacha "Daromadli ayol" kooperatsiyasi doirasida 50 ta loyiha amalga oshiriladi. 2300 nafar xotin-qiz bandligi ta'minlanadi.

Umuman, kambag'allikni qisqartirish masalasi dasturda markaziy o'rin egallaydi. 1500 dan ortiq oilani kambag'allikdan chiqarish rejasini bu boradagi aniq maqsadlarni ko'rsatadi. Bu vazifa faqat ijtimoiy yordam berish bilan emas, balki kompleks yondashuv orqali hal etilishi rejalashtirilgan. Ya'ni, odamlarga ish berish, ularni kasbga o'qitish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror daromad manbalari yaratiladi.

Bu yerda bir jihatga alohida e'tibor qaratish kerak: kambag'allikni kamaytirish bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va ma'naviy masala hamdir. Chunki inson o'z mehnati bilan daromad topa boshlasa, uning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi or-

tadi, jamiyatdagi o'rni mustahkamlanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ham an'anaviy tajriba va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligiga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2054 gektar maydonda tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlari joriy etiladi. Bu global iqlim o'zgarishi davrida suv resurslaridan oqilona foydalanishning yagona yo'lidir.

Shuningdek, joriy yilda go'sht ishlab chiqarishni 43 ming tonnaga, sut ishlab chiqarishni esa 95 ming tonnaga yetkazish maqsad qilingan. 19,9 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlarini xorijga sotish rejalashtirilgan nafaqat daromadni oshiradi, balki mahsulot sifatini xalqaro darajaga moslash talabini qo'yadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari-ga qaratilgan e'tibor esa uzoq muddatli taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Chunki bilim va sog'lom jamiyatgina barqaror rivojlanishga erisha oladi. Yoshlarning bilim olishi, yangi kasblarni egallashi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi bularning barchasi kelajak iqtisodiyotining poydevoridir. Faqatgina IT Park rezidentlarining eksport hajmini 100 ming dollardan oshirish maqsadining o'zi toyloqlik yigit-qizlar uchun qanchalik katta imkoniyatlar yaratilayotganini ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash sohasida esa profilaktikaga katta urg'u berilgan. Jumladan, 69 mingdan ortiq aholi yurak qon-tomir va qandli diabet kasalliklari bo'yicha, 17 mingga yaqin ayollar esa onkologik kasalliklarning oldini olish maqsadida tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Albatta, bu kabi keng ko'lami rejalarni amalga oshirish oson emas. Bu katta mehnat, mas'uliyat va hamjihatlikni talab qiladi. Davlat organlari, tadbirkorlar va oddiy fuqarolar bir maqsad yo'lida harakat qilgan taqdirdagina kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Natijadorlik — davlat xizmatining bosh mezoni

Davlat boshqaruvi tubdan transformatsiya bo'layotgan davrda yashayapmiz. Ilgari davlat idorasi deganda ko'z oldimizga faqat rasmiyatchilik, murakkab byurokratik to'siqlar va bugun bor-u ertaga yo'q qarorlar kelgan bo'lsa, bugungi kun boshqaruvining markazida bitta muqaddas g'oya turibdi: "Inson qadri uchun". Bu qadriyatni amalda ta'minlashning yagona yo'li esa natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga o'tish.



uz onlayn platformasidan faol foydalanilmoqda. Tizim orqali har bir rahbarning kundalik faoliyati, dasturlar ijrosidagi ishtiroki va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qay darajada bajarayotgani baholanadi. Agar ko'rsatkich past bo'lsa, tizimning o'zi buni "qizil" rang bilan ko'rsatib beradi va bunday rahbarlarga nisbatan qat'iy intizomiy choralar ko'riladi. Natijada inson omili aralashuv-siz, adolatli va shaffof baholash tizimi shakllanadi.

Shu maqsadda bugun davlat xizmatlari soddalashtirilmoqda, murojaatlar tezkor hal etilmoqda, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratilmoqda. Hokimliklar faqat boshqaruv organi emas, balki aholi va tadbirkorlarga kompleks xizmat ko'rsatuvchi institutga aylanmoqda.

QURUQ HISOBTLARDAN ANIQ RAQAMLARGA

Davlat boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqishda eng asosiy talab - bu natija. Endi "falon ish amalga oshirildi", degan umumiy gaplar o'tmaydi. Har bir rahbar va xodimning faoliyati KPI (muhim samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholanmoqda.

Ayni paytda rahbar va xodimlar faoliyatini baholashda samaradorlik,

RAQAMLASHTIRISH VA "SMART" BOSHQARUV

Hokimlik tizimida hujjat aylanishi to'liq elektron shaklga o'tkazilgan "E-qaror" kabi tizimlar ish jarayonini tezlashtiradi.

Albatta, har qanday tizimning muvaffaqiyati inson kapitaliga bog'liq. Malakali, bilimli, tashabbuskor va mas'uliyatli kadrlarsiz hech qanday islohot kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli kadrlar tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, rahbarlarning zamonaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Davlat xizmatida "tasodifiy" tayinlovlarga endi o'rin yo'q. Inson omilini kamaytiradigan intellektual baholash tizimini joriy etganmiz. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalarini imtiyozli tugatgan yoshlar uchun maxsus rivojlantirish trayektoriyasi ishlab chiqilgan. "Sirli mijoz" - odob-axloq komissiyasi a'zolari oddiy fuqaro sifatida kelib, xodimlarning muomalasini, xizmat sifatini tekshiradi. Dam olish kunlari asossiz ishga chaqirish holatlari bo'yicha anonim so'rovnomalari o'tkaziladi. Rahbarlikka tayinlashda odob-axloq komissiyasining ijobiy xulosasi majburiy olinadi.

BOSHQARUVDA AYOLLAR VA YOSHLARNING ROLI OSHDI

Kadrlar zaxirasini shakllantirishda "Lider ayollar" va "Kelajak liderlari" dasturlariga alohida urg'u berilyapti. Ayol bor joy-

da tartib, nazorat va mehr bo'ladi. Yoshlar esa tizimga yangi energiya, raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalarni olib kiradi.

Davlat xizmatchisining yurish-turishi, muomala madaniyati va hatto ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi yetuk meyorlarga asoslanishi lozim. Shu ma'noda davlat xizmatchilarining nafaqat intellektual, balki ma'naviy salohiyatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat xizmati - yuksak mas'uliyat va sharaf. Ilgari hokimliklarga ishga kirish uchun faqat "tanish-bilish" yoki muayyan tavsiyalar kerak bo'lgan. Bugun insonning mehnati, bilimi va qobiliyati tufayli xizmat pillapoyalaridan ko'tarilishi muhim ahamiyatga ega.

Akbar QODIROV, Samarqand shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.

Shu

paytgacha Go'zalkent, Kumushkent, Yangiqo'rg'on, Loyish, Mustaqillik mahallalarida yashovchi aholi xonadonlarida yong'in xavfsizligi holati o'rganilib, gaz va elektr tarmoqlaridan foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Korxonatashkilotlarda texnika xavfsizligi yuzasidan nazorat kuchaytirilib, favqulodda vaziyatlarda harakatlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Bolalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida maktab va bolalar bog'chalarida maxsus darslar hamda ko'rgazmali chiqishlar tashkil etilmoqda.

Xavfsizlik faqat mutasaddi tashkilotlarning vazifasi emas. Har bir fuqaro oddiy qoidalarga amal qilgan holda o'z hayoti va yaqinlari xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

«Dolzarb 30 kun»

Siz ham mas'ulsiz

"Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida o'tkazilayotgan - "Dolzarb 30 kun" oyligi doirasida Oqdaryo tumanida keng ko'lami profilaktik tadbirlar tashkil etilib, aholi xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bu boradagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda mahallalarda targ'ibot-tushuntirish ishlari olib boryapmiz. Aholiga yong'in xavfsizligi qoidalarga rioya qilish, gaz va elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanish, shuningdek, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar vaqtida to'g'ri harakatlanish tartiblari haqida batafsil ma'lumotlar berilmoqda.



Farhod TOSHEMIROV, Oqdaryo tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi kichik inspektori.



Pista chilik DRAYVERI

Nurobodning yangi bo'ladi

Pista qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli bo'lgan ko'p yillik daraxt hisoblanadi. Sekin o'sadi, lekin uzoq umr ko'radi. Issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli va serhosil bu daraxt ayrim manbalarda 40 daraja issiq va sovuqqa chidashi va ming yilgacha yashashi mumkinligi qayd etilgan. Uning mevasi yuqori dietetik xususiyatga ega bo'lib, tarkibida 49-60 foiz moy, 15-20 foiz oqsil va 3-8 foiz qand mavjud. To'g'ri parvarish bilan gektariga 5-6 tonnagacha yuqori sifatli hosil beradi.

Pista o'stirish dastlab 1937-yilda Bobotog' tizmasida boshlangan bo'lsa, hozirda O'zbekistonda tabiiy holda deyarli barcha tog' tizmalarida uchraydi. Viloyatimizda Kattaqo'rg'on suv ombori atroflarida katta maydonlarda pistaazorlar tashkil etilgan. Respublikada urug'idan ekib o'stirilgan pistaazorlar yil sayin ortib bormoqda. O'zbekiston o'rmonchilik ilmiy tadqiqot institutida pista ning 10 ga yaqin navi yaratilgan, 30 dan ortiq pista navlari kolleksiyasi barpo etilgan.

Yuqorida sanab o'tilganidek pista qurg'oqchilikka, issiq, sovuqqa chidamli, ko'p yillik va yuqori daromadli, eksportbop o'simlik. Bu jihatlar hozirgi suv tanqisligi kuchayayotgan agrar sohada eksport barqarorligini ta'minlash muhim bo'lgan vaziyatda eng maqbul o'simlik hisoblanadi.

Shu bois Prezident Administratsiyasining 2026-yil 3-fevraldagi yig'ilishida Nurobod tumanida pista yetishtirish loyihasini ishlab chiqish, tuman hududidagi davlat zaxira yerlaridan samarali foydalanish, degradatsiyaga uchrayotgan yerlarni yaxshilash uchun pista plantatsiyalarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berilgandi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi O'rmon agentligi tomonidan joylarda pistaazorlar tashkil etish ishlari boshlab yuborildi. Pista plantatsiyalarini tashkil etish ko'chat ekish jarayonlarida o'rmon xo'jaligi, ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasi va OAV vakillari ishtirok etdi.

Topshiriq ijrosi doirasida o'tgan yili kuzda pista ekish ishlarini boshladik, - deydi Nurobod tumanidagi Saroyqo'rg'on davlat o'rmon xo'jaligi direktori Ahmadjon Sag'dullayev. - Buning uchun Nurobod tumani zaxira yerlaridan o'rmon xo'jaligimizga 50 ming gektar yer maydoni ajratish belgilangan. 10 yillik dastur doirasida, ya'ni 2036-yilgacha har yili 5 ming gektardan pista plantatsiyalarini barpo qilish vazifasi qo'yilgan. Mazkur yirik loyihani amalga oshirish, sug'orish tizimini yo'lga qo'yish uchun davlat budjetidan 21 milliard so'm mablag' yo'naltirilmog'da. Bunda 50 dona tik quduq, shuncha suv havzalari o'rnatiladi va hududdagi Po'latchi, Nurdum, Mash'al va boshqa mahallalardagi kam ta'minlangan oilalardagi 500 dan ortiq ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlanadi. Ularga pudrat shartnomasi asosida 5 gektardan 10 gektargacha yer ajratib beriladi. Maydonlar tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan holda topshiriladi. Bugungi kunda viloyatimizdagi 10 ta o'rmon xo'jaligining har biri 500 gektardan ekish ishlarini olib bormog'da.

Mutaxassislarining o'rganishlariga ko'ra pistani dastlabki uch yilda doimiy ravishda sug'orish yetarli bo'ladi, keyin ildizning yerga chuqur kirib borishi hisobiga yerning pastki qatlamidan zarur namlikni oladi va uzoq yillar hosil beradi.

Lalmi maydonlarda pista plantatsiyalarini barpo etishning samarali ekanligini

ilm bilan asoslashga harakat qilyapmiz, - deydi o'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti seleksiya, urug'chilik va ko'chatchilik laboratoriyasi mudiri, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor Bobomurod Eshonqulov. - Tumanning Kattaqo'rg'on suv ombori atrofidagi lalmi qir-adirliklarda pistaazorlar tashkil etish tarixi deyarli 80 yilni qamrab oladi. 1949-yilda suv ombori qurilgandan so'ng uning atrofidagi qirg'oqlarni eroziyadan saqlash uchun pistaazorlar barpo etish boshlangan. O'shanda asosiy vazifa sifatida tuproq yemirilishi, eroziyasining oldini olish bo'lgan. Hozirda bu daromadli o'simlik tomchilatib sug'orish yo'li bilan adirliklarga ekilib, pista plantatsiyalari barpo etilmog'da.

Tumanda joriy yilning bahor mavsumida 252 gektar yerga ko'chatdan, 290 gektar urug'dan jami 542 gektar maydonda pista plantatsiyalari tashkil etildi. Ko'chatlar tumanlardagi o'rmon xo'jaliklarida tayyorlandi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, mazkur tashabbus degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va ulardan samarali foydalanishda qulay hisoblanadi. Agrotexnik talablarga ko'ra, pista daraxtlari 6-7 yilda hosilga kiradi va 12-yildan yuqori hosildorlikka erishiladi.

Hududdagi Nurdum mahallasidagi 6 qishloqda 1300 xonadonda 6 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, ularning 70 dan ortig'i kam ta'minlangan oila hisoblanadi. Rejaga ko'ra, kam ta'minlangan oilalarni ish bilan ta'minlash va doimiy daromadga ega bo'lishlari uchun dastlab ularga pista maydonlari ajratiladi. Ushbu mahalladagi 400 dan ortiq xonadonda ko'p yildan buyon pista yetishtirilishi va aholida bu o'simlik borasida yetarlicha tajriba borligini hisobga olsak, yaqin vaqtda hududda mo'may daromad manbaiga ega bo'ladigan yangi drayver yo'nalish paydo bo'ladi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.
Baxtiyor MUSTANOV olgan surat.

XABARDORLIK VA OGOHLIK ZARUR

So'nggi yillarda yurtimizda mazkur illatga qarshi murosasiz kurashish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda davlat tashkilotlari, yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Yaqinda "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati tizimida o'tkazilgan yig'ilish ana shu yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirishga xabar qildi. Yig'ilishda 2025-yil 30-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Har hafta juma kuni ishchi-xodimlar ishtirokida o'tkazilayotgan yig'ilishlarda qonunchilikdagi yangiliklar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talab va qoidalar tushuntirilayotgani o'z samarasini berayotgani ta'kidlandi. Bu boradagi ishlarni izchil amalga oshirish belgilab olindi.

G'ayrat MA'RUPOV,
"O'ztransgaz" AJ Samarqand magistrat gaz quvurlari boshqarishi axborot xizmati bo'yicha mas'ul xodim.

Muhokama davomida Samarqand magistrat gaz quvurlari boshqarmasida joriy yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" doirasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Har hafta juma kuni ishchi-xodimlar ishtirokida o'tkazilayotgan yig'ilishlarda qonunchilikdagi yangiliklar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talab va qoidalar tushuntirilayotgani o'z samarasini berayotgani ta'kidlandi. Bu boradagi ishlarni izchil amalga oshirish belgilab olindi.

G'ayrat MA'RUPOV,
"O'ztransgaz" AJ Samarqand magistrat gaz quvurlari boshqarishi axborot xizmati bo'yicha mas'ul xodim.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

Urgut tumanidagi "URGUT SAVDO KOMPLEKSI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy hisobot yig'ilishi 2026-yil 11-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJ ta'sischilarining umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- 2025-yil yakunlari bo'yicha boshqaruv raisining hisoboti;
- 2025-yil jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha jamiyat bosh hisobchisi Sh.Xorinovning hisoboti;
- 2025-yillik buxgalteriya balansini tasdiqlash;
- 2025-yil holati bo'yicha "MAA-PERFECT" MCHJ auditorlik tashkilotining tekshiruv xulosasini tasdiqlash;
- jamiyatning 2026-yil uchun ishlab chiqilgan biznes rejasini tasdiqlash;
- jamiyatning 2026-yil uchun shtatlar birligi jadvalini tasdiqlash;
- jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha ta'sischilarga ajratiladigan dividend taqsimoti va uning to'lovini ko'rib chiqib tasdiqlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil yangi a'zolarini va raisini saylash;
- jamiyat boshqaruv a'zolarini saylash;



- jamiyat taftish hay'ati azolarini saylash;
- boshqa masalalar.

Yig'ilishda qatnashish uchun o'zingiz kelishingiz yoki o'z ishonchli vakilingizni ishonchnoma orqali yuborishingiz so'raladi.

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJ KUZATUV KENGASHI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Pulatova Nodira Ziyayevnaga (2011-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Baxronov Ablakulga (1995-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasida marhum Raxmatov Sobir Muxtarovichga (2022-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulov Shavkat Quroqboevich notarial idorasida marhum Abdulimov Kobilga (2001-yil 13-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulov Shavkat Quroqboevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Miton shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 42-uy.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyoi instituti jamoasi institut botanika kafedrasida dotsent
Zebunniso BAHRONOVAning vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

JOMNING ZIYO MASKANI:

QISHLOQDAN BOSHLANGAN ILMIY RENESSANS TAASSUROTIDAN

Ilm-fan chegara bilmaydi, uning nuri har qanday masofani zabt etishga qodir. Yaqinda qardosh O'zbekiston zaminiga, xususan, Samarqand viloyatining serviqor Nurobod tumani, Jom qishlog'iga safarim men uchun kutilmagan ma'rifiy kashfiyotlar maydoniga aylandi.



Meni hayratlantirgan asosiy voqe'lik — taniqli olim, professor Pirnazar Davronovning fidoyiligi va uning ilmiy-metodik rahbarligi ostida yigirma yildan buyon uzluksiz o'tkazib kelinayotgan Jom olimpiadasi bo'ldi. Joriy yilning aprel oyida o'tkazilgan bilimlar bel-lashuvi shunchaki maktab tadbiri emas, balki qishloq sharoitida iqtidorlarni kashf etish va ularni jahon ilm-fan maydoniga tayyorlashning o'ziga xos laboratoriyasidir.

Ushbu tizimning naqadar hayotiy va samarali ekanini uning natijalari so'zlab turibdi. Mazkur olimpiadaning ilk qaldirg'ochi — bugungi kunda filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent darajasiga ko'tarilgan Iroda Ernazarovning muvaffaqiyat yo'li bunga yorqin misoldir. Jomdagi bu jarayonlarni hurmatli hamkasbim, professor Ibrodulla Mirzayev bilan kuzatarkan ekanim, bir muhim haqiqatga amin bo'ldim: "Jom modeli" — bu bugun biz

intilayotgan Uchinchi Rennessansning qishloqdan boshlangan poydevoridir.

Shu o'rinda, bu xayriy tashabbusni keng ommalashtirish tarafdorim. Agarda boshqa hududlarda ham bunday olimpiadalarni tashkil etishdagi ortiqcha rasmiyatchiliklar va sun'iy to'siqlar olib tashlansa, oliy ta'lim muassasalariga a'lo baholar bilan kiruvchi, chuqur bilimli yoshlar qatлами keskin ortgan bo'lar edi. Bu kabi loyihalarni nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda ommalashtirish zarur deb hisoblayman.

Men yigirma yildan buyon bu og'ir va sharafli yo'lni bosib o'tayotgan professor Pirnazar Davronovga yuksak ehtirom bildiraman. Bunday zahmat-kash olimlarning mehnati tufayli qishloq bolalarining qalbidagi ilm chirog'i hech qachon so'nmaydi.

Pirnazar Davronovga sihat-salomatlik, kuch-quvvat va kelgusi ishlarida omadlar tilayman. Jomning serviqor tog'lari kabi ilm yo'lidagi zafarlaringiz ham baland va bardavom bo'lsin!

Shapag'at JALMAXANOV, E.Beketov nomidagi Qarag'anda davlat universiteti professori (Qozog'iston).

Muomala madaniyati bilan universitetning 65 yilligini ta'arifiy quruvchilari orasida alohida ajralib turadigan Muro Muhammadievich Yuldoшевni talabaliqimizdan taniganimiz.

Jismoniy hiqatdan etukligi sabab universitet va shaqar mikedsida deyarli barcha sport musobaqalarida 6ta faol edi, 6k otish va kilichbozlik b6yicha universitet talabalari terma jamoasining sardori b6lган. 6sh pedagogning shiqoatiga, professor-6kuvuvchilar va talabalari bilan tezda 6kishi ketishiga qavas kilardik. Qarang, 6sha voqealarqa ham endi yrim asrdan oshibdi.

Bugun Muro Muhammadievich el tanigan ma'rifatchi olim-pedagog, birinchi darajali mehqat faxriysi, filologiya fanlari nomzodi, professor, filolog-huquqshunos olim umrining saksoninchi baqorini qarshilamoqda. Ustoz oliy ta'lim sohasida ishlash davomida oddiy assistentlikdan, doqent, kafedra mudiri, universitet kasaba uyumasi raisi, maxsus sirtqi b6lim boшлиqi, fakultet dekani lavozimlarida faoliyat kurساتdi.

Albatta 80 yillik umrining bir universitetda 6tgan 60 yili oson keqan emas. Uning har bir yili juda katta saboq bergan. Ana shu saboqlardan 6turi xulosaga 6khar-ganligi uchun ham domla hozirga qadar yaxshi martabaqa ega. Fakultet dekanining 6rinbosari va dekani, kasaba uyumasini tashkiloti raisi sifatida tashkilchiligini namo6n qilgach, 15 yil davomida SamDU kasaba uyumasini kumitasi raisi lavozimida ishlaydi. 6x-xe,

Olimning ziylisi - ziylining olimi



bu davrda qanchalaq kishilarning joniga oro kiradi, dam olishi, davolanishini tashkil etadi.

Vakt 6tib, keyinchalik 6zimiz ham bu inson bilan bir safda turadigan b6ldik. 6kuvuvchilik mashaqqatlarini kurganimizdan keyin domlaning ana shu tashvishlarida xamisha ilfor b6lib yurishiga tan berdik.

Keyinchalik angladikki, Muro Yuldoшевning ibratli faoliyati bejiz emas. Ustoz Ishitxonning 6ingatoi qishlogida ma'rifati bilan nom 6kharigan mullo Muro Muhammad Yuldoшевning farzandi. Ziyea intilishi, samimiyat nasabidan 6tgan xislat. Shuning uchun ham u 6rta maktabda, Samarqand davlat universiteti talabaligida tezda k6zga tashlanadi. Tengdoq olim d6stlarining aytishlariga, Muro aka 6zining mehqatsevarligi, namunali hulqi va a'lo baqolarida 6kishi kabi fazilatlarini uchun ham bitiruvchi kursligida 6k ustoz domlalar safiga yurgan, dorilfunnuni imti6zli diplomga bitirgach Oliy va 6rta maxsus ta'lim vazirligining qaroriga asosan yet

tillari fakultetining frantsuz va lotin tillari kafedrasini 6kuvuvchiligiga olib qoishgan.

Muro aka tiniq-tinchimaydigan, 6z ustida muntazam ishlaydigan domla. SamDU huquqshunoslik fakulteti kechi b6limiga 6kib, huquqshunoslik b6yicha ikkinchi mutaxassislikni ham egalladi. 1971-1973 yillarda Ukrainaning Lyov davlat universitetida lotin tili b6yicha mалаka oshirish kursida 6kib kelgach, u yangicha 6ayrat bilan ishgа kirishi, kutubxonani ikkinchi uy deb bildi. Bir qator maqallari va xorijiy ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalari qildi. Tabiiyki, ana shunday qizgin faoliyat jarayonida nomzodlik dissertatsiyasini 6klaydi, k6plab darlik va 6kuv k6lanmalarining muallifi sifatida respublika mikedsida taniqli, professor unvoniga erishdi.

Muro Yuldoшев Janubiy Qozogiston universiteti raqbariyati fakulteti bilan huquqshunoslik fakulteti talabalariqa "Lotin tili" va "Rim huquqi" fanlaridan ma'ruza 6kib, amaliy mashg'ulotlar olib boradi. Mazkur fanlardan ishchi-6kuv dasturlari tayirlashda uslubiy 6rdam berganligi va shu fanlardan 6kuv k6lanmalar 6zib, nashr ettirganligi 6tiborqa olinib, 6turi professor diplomini bilan taqdirlanadi.

M. Yuldoшевni 80 6sha kirgan deb aytishga tortinmasan kishi. Chunki hozir ham ana shu fazilatlarini tufayli jamoaning 6tirobora. Safoqlari, talabalar, ota-onalar bilan ularning 6z fozillarida tillasha oladi. Aybu kusurinigizni kunligingizga tegmaydigan qilib aytadi. Asosiy, xamisha kimgadir 6rdam bergisi keladi. Yana

bir xislati - k6p 6kishi. Vaktli matbuot nashrlari, jurnallar va yangi kitoblarni muntazam kuzatib boradi. Bu ma'rifiy tuyg'u u kishining 6tishiga aylangan.

M. Yuldoшев faol 6at tarzini olib boruvchi huquqshunos mutaxassis sifatida ham insonlarning konstitutsion huquqlarini muntazam 6rganib, 6atga, amaliy 6tga tatbiq etib boradi. Ta'lim va fan hodimlarining huquq va manfaatlarini ifodalovchi ilmiy-ommabop maqolalari bilan viloyat va respublika matbuot saqifalarida muntazam chiqishlar qiladi.

Domla har qancha tashkilotchilik b6lmasin, bir daqika ham ilmdan ajralgan emas, aksincha izlanishda xamkasblari, talabalariqa ibrat kurساتdi. 6rtta darlik, 6tuzidan ortiq 6kuv va uslubiy k6lanma, ikkita ilmiy monografiya yaratdi. Ilmiy-ommabop maqolalarining esa son-sanoqi 6k. Besh nafar tadqiqotchining dissertatsiyasiga ilmiy raqbarlik qildi.

Muro Muhammadievich Yuldoшевning kamtarona mehqati SamDU raqbariyati, huqumatimiz tomonidan munosib baqolanagan. Tiniq-tinchimas, zahmatkash olim "Oliy ta'lim a'lochisi", "6zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi", birinchi darajali "Mehqat faxriysi" kabi qator kurkar niqonlari bilan taqdirlangan.

Safoqlar va talabalar hurmatini 6ziga berilgan munosib baqo 6rinda kurguvchi domla Samarqand davlat universiteti xorijiy tillar kafedrasini professori xamon saqimida farzandlar va shogirdlar kamolini kurib, zamonimizga shukrona aytib turmush keqirmoqda. Ana shu shiqoat, oqillik, tetiklik ustozni tark etmasin! Kutlug 6sh muborak b6lsun Muro aka!

M6yin QODIROV, Samarqand davlat universiteti professori. Mardon BOLTAEV, universitet doqenti.

Telefon soyasida qolayotgan bolalik

Bugun bir xonadonda besh-olti kishi yashasa, kamida shuncha telefon bor. Ayrim uylarda esa telefonlar odamlardan ko'p. Bir dasturxonida o'tirib, har kim o'z ekraniga tikilgan. Bir uyda, bir havoda, ammo bir-biriga begona odamlardek yashayapmi. Bu manzara endi hech kimni hayron qoldirmaydi. Aslida esa bu jamiyat uchun jiddiy ogohlantiruvchi signal.

Bir paytlar uyimizda bitta telefon bo'lardi. Uni otamiz yoki onamiz tutardi va u butun oila uchun yetardi. Hech kim ruhan yetishmovchilikni his qilmasdi. Bolalar ko'chada o'ynab charchar, uy ishlariga yordam berar, kitob o'qir, dars qilishga shoshardi. Dars qancha ko'p bo'lsa, "zerikdim" degan gap kam eshitilardi.

Bugun esa bolaga "dars qil" desangiz, javob tayyor: "bo'ldi", "qilib bo'ldim". Ammo shu bolani telefonidan uzib oling-chi, asab, yig'ri, jahli, qarshilik. Telefonidan bolani uzoglashtirish, deyarli imkonsiz. Chunki biz ularni shu holatga o'rgatdik.

Yaqinda qishloqning chekkasida yashovchi qarindoshimnikiga mehmonga ketayotganimda bir yosh onaga ko'zim tushdi. Bir qo'lida telefoni orqali video tomosha qilib ketayotgan ayol ikkinchi qo'li bilan bola aravachasini yetaklab borardi. Aravachadagi bolajonning ham jajji qo'llarida kattagina telefon, u ham qandaydir multfilm tomosha qilyapti.

- Keqirasiz, - dedim uni to'xtatib. - Shu qishloqda yashaysizmi? Maryam xolaning uyini so'ramoqchi edim.

U yo'lni tushuntirib berdi. Men bu yo'lni yaxshi bilganim uchun, uning gaplariga u qadar e'tibor qilmay, boshqa savol berishga chog'landim:

- Voy, farzandingiz juda yoqimtoy ekan, ko'z tegmasin. Ikki yasharmi?

- Yo'q, - dedi u. - Hali yoshiga to'lmagan, o'n bir oylik.

- Hali yoshiga to'lmagan bolaga telefon berib qo'yibsizmi?

Ayol xijolat bo'lmadimi yoki o'zini haq deb bildimi bildim, ammo xotirjam javob qildi:

- Och qornim, tinch qulog'im. Agar telefonni

olib qo'ysam, manzilga yetguncha butun qishloqni boshiga ko'taradi.

- Baribir bu yaxshi emas, - dedim. - Bilaman, - dedi u. - Ammo bu rosa erka. Dadasi o'rgatib qo'ygan.

Gapini isbotlamoqchidek, bolaning qo'lidan telefonini olgan edi, u baqirib yig'lashga tushdi. Telefonni yana qo'lga tutqazgandi, bola darhol tinchidi.

- Afsus... - dedim bosh chayqab. - Har holda ehtiyot bo'ling. Bu farzandingizning salomatligiga ham, kelajagiga ham ta'sir qiladi.

Bugun nega xotirasi past, diqqati tarqoq, o'qishga qiziqmaydigan, sabrsiz bolalar ko'payib ketdi? Nega eng oddiy qiyinchilikda yig'laydigan, arzimagan narsaga jahli chiqadigan bolalar soni ortdi? Bu savollarga javob izlash shart emas. Javob har kuni bolaning qo'lini, ko'zini, ongini egallab olgan ekranda.

Telefon bolaga tayyor tasvir beradi, tayyor xursandchilik taqdim etadi. U o'yashga majbur qilmaydi, sabr talab qilmaydi. Shu boqs kitob bola uchun og'ir, zerikarli tuyuladi. Kitob fikrlashni o'rgatadi, telefon esa ongni dam oldirgandek qilib, aslida uni bo'shatib qo'yadi.

Kattalar esa bolalardan noliydi: "Bolalar telefonsiz yashay olmaydi". Ammo asosiy savol boshqa: bolani telefonga kim o'rgatdi? Go'dakka telefonni kim tutqazdi? U ovqat yeyishi uchun, yig'lamasligi uchun, tinch o'tirishi uchun kim ekranni "qutqaruvchi"ga aylantirdi?

Ona bolasini beshikda uxlatar ekan, o'zi telefon bilan band bo'lsa, bola ko'zini ochganidan shu manzarga guvoh bo'lsa, u qanday tarbiya oladi?



Dunyo sayqalidir hamon Samarqand, Shonu sharafiga ikki ruh dilband: Biri Amir Temur - sinmagan taxti, Biri al-Buxoriy - e'tiqod faxri!

Mamayunus PARDAYEV.

U kimdan o'rnak oladi? Bolalarimizni ko'chadan himoya qilish haqida ko'p gapiramiz. Ammo eng katta xavfni o'z uyimizga o'zim olib kirganimizni tan olishni istamaymiz. Farzandlarimizga mehr o'rninga telefon, suhbat o'rninga internet beryapmiz. Bu bilan ularning salomatligiga zarar yetkazayotganimizni sezmay qolyapmiz.

- Bundan ko'zo'n o'n besh yil ilgari maktabga borsangiz, bir sinfda bor-yo'g'i bina bola ko'zoynak taqqaniga guvoh bo'lardingiz, - degan edi bir suhbatda Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroskopirguriyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filiali direktori, oftalmolog Botir To'xtayev. - Bugun esa bir sinfning o'zida kamida besh-o'n nafar bola ko'zoynak taqib o'tirganini ko'ryapmiz. Bu faqat shifokorga murojaat qilib, tashxis qo'yilganlari. Hali ko'zida muammo bo'la turib, aniqlanmagani qancha.

Mutaxassisning ta'kidlashicha, bunday holat tasodifiy emas. Ko'pchilik "nega bolalar ko'zoynak taqib qolyapti", degan savolga irsiyat yoki tug'ma muammolarni sabab qilib ko'rsatadi.

- Bolaning ko'zi tabiatan yaqin masofaga uzoq vaqt tikka holda qarashga moslashmagan, - deydi mutaxassis. - Telefon, planshet, televizor qarshisida soatlab o'tirish ko'z mushaklarini zo'riqtiradi, ko'rish qobiliyatini susaytiradi. Ayniqsa, bu holat bolalik davrida juda tez salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shifokorning so'zlariga ko'ra, ko'zdagi muammolar ko'p hollarda sekin-asta boshlanadi. Ota-onaga esa bola "ko'rib turibdi-ku" deb, bu o'zgarishlarni payqamaydi. Ammo vaqt o'tib, natija ko'zoynak orqali namoyon bo'ladi.

Bu raqamlar shunchaki statistika emas. Bu - ekranlar oldida o'tib ketayotgan bolalikning, bee'tibor qoldirilayotgan salomatlikning yaqqol ogohlantiruvchi belgisi.

Bu texnika yoki zamonning aybi emas. Bu - bizning tanlovimiz. Telefon bolani tarbiya qilmasligi kerak. U vosita, xolos. Tarbiyachi emas.

Zahro IBRAGIMOVA, Nurota tumani.

Pedagog va jurnalist

Salimjon Xidirnazarov 80 6sha

Bu guqshan iqraqim 6kurtur baqo guqiga sabot, Ajab saodat erur, 6kqsa yaxshilik bila ot.

Alisher Navoiy

Hazrat Navoiyning yuqoridagi faridasi ifodalangan goyani 6z umrining mazmunu va maksadi deb bilgan navoiyshunos olim Salimjon Xidirnazarov 1946 yilida Samarqand shaqrida ziyl oila-sida dunega keladi. Otasi Muro Muhammad Amin Xidirnazarov shaqar, viloyat va respublika mikedsida raqbarlik lavozimlarida ishlagan ziyl inson edi. Badiiy adabiyetga juda qiziqardi.

Ana shunday adabiy muqim 6sh Salimjonda badiiy adabiyetga meqr uytotgan edi. Samarqand shaqrida 5-6rta maktabini 1964 yilda oltin medal bilan tugatdi.

Shu yilning 6zida Samarqand davlat universitetining 6zbek va tojik filologiyasi fakultetiga 6kisha kirib, 1969 yilda uni imti6zli diplom bilan bitirdi. Universitetdagi 6shkin adabiy muqim u 6kigan guruh talabalariga ijobiy ta'bir etmasdan qolmadi. Natijada bir guruhning 6zidan Omon Matjon, Muxarrama Gafurova, 6jja 6xit, Bekmurod Yuldoшев, Abdushukur Choriev, Abduraqib Abduraqonov, Abduqamid Samiev singlari shoira va olimlar etishi b6kdi.

Navoiyshunos olim Salimjon Xidirnazarov ham 6zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyat institutining ixtisoslashtirilgan ilmiy kenagashda akademik Botirxon Valiqovqa raqbarligiga nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli 6klaydi.

Salimjon Xidirnazarov Samarqand shaqrida maktablarda ona tili va adabiyatdan dars berdi. Uzoq mudat Samarqand davlat tibbiyot institutida 6kuvchi, katta 6kuvchi, doqent va kafedra mudiri lavozimlarida ishlaydi.



Bir neqa yil Samarqand viloyat 6kuvuvchilar mалаkasini oshirish institutida faoliyat kurساتdi. Navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, xalq ta'limi a'lochisi, mehqat faxriysi Salimjon Xidirnazarovning 2 ta kitobi, ikki yuzdan ortiq ilmiy, uslubiy, publikistik maqolalari chop etilgan.

Masalan, "6zdaq imom maqbarasi" kitobida Samarqand shaqrida Zominiy maqallasi-da joylashgan, tarixi va aniq sanasi ma'lum b6lmagan 6zdaq imom maqbarasining XII asrga tegishli ekanligi qayroqtoqlardaqi arabcha 6zuvlar asosida isbotlab berilgan.

U kishi 10 ta xalqaro, 27 ta respublika ilmiy-uslubiy konferensiyalarda ma'ruzalari bilan qatnashgan.

Hozirgi pайдa pensiyada b6lishiga qaramay, Salimjon Xidirnazarov "Nuroniy" jamgarmasi Samarqand shaqar b6limining ishlarida faol qatnashib kelmoqda. Vaktli matbuotda maqolalari tez-tez kichik turadi.

Toqib 6URAEV.

MATBUOT UYI Zarafshon Samarqandский Вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 774 nusxada chop etildi. Buyurtma 183. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2 Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61 MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida saqifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaga manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G. HASANOV. Navbatchi: O. XUDOYBERDIYEV. Sahifalovchi: B. ABDULLAYEV. Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X 9 772010 667009 Sotuvda narxi kelishilgan holda